

Serqirra ijodkor

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari doktori Baxtiyor Rasulov (Baxtiyor Abdug'afur) "Sulton Jaloliddin Manguberdi" romani uchun Yozuvchilar uyushmasi mukofotiga sazovor bo'ldi.



Baxtiyor Abdug'afurning shu kungacha "Qonli gullar vodiysi: Madaminbek", "Sulton Jaloliddin Manguberdi", "Omlar kurashi: Malikaning mash'um bitigi" kabi asarlari e'lon qilingan. Yaqinda yozuvchining "Uzbechka" asari "Yangi asr avlodi" nashriyotida chop etildi. Mazkur asar o'zbek snayper qizining ikkinchi jahon urushida ko'rsatgan qahramonliklari va og'ir qismatidan hikoya qiladi.

